

UO‘K(UDC, УДК): 81-26

O‘ZBEK PUBLITSISTIKASIDA BADIY-PUBLITSISTIK JANRNING TILI VA TRANSFORMATSIYASI⁹

Madiyarov Babur Allambergenovich

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili amaliy tarjima kafedrasida katta o‘qituvchisi

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: madiyarovbabur@gmail.com

ORCID ID: 0009-0007-8906-7955

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola o‘zbek publitsistikasidagi badiiy-publitsistik janrning zamonaviy o‘zgarish dinamikasini qiyosiy-tipologik va lingvoslubiy tahlil asosida o‘rganishga bag‘ishlangan. tadqiqotda uchta yo‘nalish ustuvor o‘rin tutadi: badiiy va publitsistik nutqning differensial belgilarini nazariy-metodologik jihatdan asoslash; korrespondensiya, maqola, taqriz va sharh janrlarining lingvistik-funksional parametrlarini aniqlash; hamda raqamli axborot muhitida yuzaga kelayotgan janr transformatsiyasining bosqichlari va yo‘nalishlarini tavsiflash. muammoning ilmiy ahamiyati shundaki, zamonaviy media makonida janrlararo chegaralarning noaniqligi va gibrid shakllarning vujudga kelishi an’anaviy tasnif tizimini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi, tadqiqotda matn tahlili, leksik-semantik va qiyosiy usullardan kompleks tarzda foydalanilgan. Qayt etilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi o‘zbek badiiy-publitsistik janriga xos polistilizm, muallif subyektivligining kuchayishi, dialogik tuzilma, multimedia integratsiyasi va janrlararo diffuziya hodisasi yangi kommunikativ paradigmaning shakllanayotganini tasdiqlaydi. Tadqiqot xulosalari o‘zbek adabiy-publitsistik jarayonini o‘rganuvchi qiyosiy adabiyotshunoslik, medialingvistika va jurnalistika nazariyasi sohasidagi keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

KALIT SO‘ZLAR

Publitsistika, badiiy-publitsistik janr, janr transformatsiyasi, qiyosiy adabiyotshunoslik, medialingvistika, o‘zbek jurnalistikasi, raqamli media, kommunikativ paradigma.

Received: April 01, 2026

Accepted: April 12, 2026

Available online: May 10, 2026

⁹ For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Madiyarov B. O‘zbek publitsistikasida badiiy-publitsistik janrning tili va transformatsiyasi.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 3(11) — B. 93-102.

**LANGUAGE AND TRANSFORMATION OF THE ARTISTIC AND
PUBLICISTIC GENRE IN UZBEK PUBLICISM****Madiyarov Babur Allambergenovich**

Uzbekistan State University of World Languages

Senior Lecturer at the Department of Applied Translation of English

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: Madiyarovbabur@gmail.com

ORCID ID: 0009-0007-8906-7955

ABSTRACT

This article investigates the contemporary transformation dynamics of the artistic-publicistic genre in Uzbek journalism through comparative-typological and linguostylistic analysis. The study focuses on three primary directions: providing a theoretical and methodological justification for the differential features of literary and publicistic discourse; identifying the linguistic and functional parameters of correspondence, article, review, and commentary genres; and describing the stages and trends of genre transformation emerging within the digital media environment. The scientific relevance of the problem lies in the fact that the blurring of inter-genre boundaries and the emergence of hybrid forms in the modern media space necessitate a revision of traditional classification systems. The research employs a complex combination of textual analysis, lexical-semantic, and comparative methods. The findings demonstrate that polystylism, the intensification of authorial subjectivity, dialogic structure, multimedia integration, and the phenomenon of inter-genre diffusion — all characteristic of the contemporary Uzbek artistic-publicistic genre — confirm the formation of a new communicative paradigm. The conclusions of the study may serve as a theoretical foundation for further scholarly investigations in the fields of comparative literary studies, media linguistics, and journalism theory.

KEYWORDS

Publicism, artistic-publicistic genre, genre transformation, comparative literary studies, media linguistics, Uzbek journalism, digital media, communicative paradigm.

ЯЗЫК И ТРАНСФОРМАЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО- ПУБЛИЦИСТИЧЕСКОГО ЖАНРА В УЗБЕКСКОЙ ПУБЛИЦИСТИКЕ

Мадияров Бабур Алламбергенович

Старший преподаватель кафедры прикладного
перевода английского языка

Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан

E-mail: Madiyarovbabur@gmail.com

ORCID: 0009-0007-8906-7955

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
<p>В данной статье с художественно-научной точки зрения глубоко анализируются критерии репрезентации образов исторических личностей в произведении «Бабурнаме». В исследовании отмечается, что в этом произведении Бабура представлена подробная информация о более чем 500 исторических личностях, и обосновывается, что в изображении некоторых из них может быть выявлена определенная концептуальная система. В частности, такие критерии, как рождение и происхождение, внешний вид, характер, политическая и военная деятельность, в том числе участие в сражениях и походах, занимаемые территории, потомки и их судьба, интерпретируются как важные факторы комплексного раскрытия образа личности.</p> <p>Также в статье подчеркивается, что исторические образы в композиции произведения находятся в неразрывной связи с различными событиями, благодаря чему динамично раскрываются как их индивидуальные черты, так и социально обусловленные особенности. В частности, в работе принцип освещения одного образа посредством других образов оценивается как результат проявления авторского художественного мышления, что приводит к заключению об эффективном использовании в «Бабурнаме» приемов сравнения и контраста. В результате изображение исторических личностей в «Бабурнаме» признано явлением, отличающимся не только фактологической точностью, но и высоким художественно-эстетическим совершенством.</p>	<p>«Бабурнаме», исторические личности, характер, концептуальная система, композиция произведения, эпическое произведение, портрет героев.</p>

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklar davomida ommaviy axborot vositalarining funksional ko‘lami sezilarli darajada kengaydi. Bugun OAV nafaqat voqea-hodisalar haqida ma‘lumot yetkazish vositasi, balki jamiyatda fikr shakllantiruvchi va jamoatchilik munosabatlarini belgilovchi muhim ijtimoiy institutga aylandi.

Ushbu o‘zgarish kontekstida publitsistik janrlarning roli va tuzilishi ham qayta talqin etilmoqda. Xususan, badiiy-publitsistik janr an‘anaviy chegaralaridan chiqib, yangi shakllar kasb etayotganligi ilmiy tadqiqotlar e‘tiborini o‘ziga jalb etmoqda. Akademik muhitda B. V. Streltsovning (Streltsov B. V., 1990) janrlarni mafkuraviy ta‘sir mezonini asosida, A. A. Tertychniyning esa kommunikativ maqsad nuqtayi nazaridan tasnif qilishi bu boradagi nazariy bazani tashkil etadi (Tertychniy A. A., 2000). Biroq ushbu tasniflar o‘rtasidagi farq hozirgi kunda ham ilmiy munozara obyekti bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, raqamli media muhiti yangi janr shakllarini vujudga keltirdi va an‘anaviy tahliliy janrlar korrespondensiya, maqola, taqriz, sharh bugungi kommunikativ sharoitda yangicha lingvistik va funksional xususiyatlar kasb etmoqda. G. V. Lazutina va S. S. Raspopovaning ta‘kidlashicha, publitsist «real faktlarni qayta tiklaydi», ya‘ni publitsistika o‘z mohiyatiga ko‘ra shartli emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri reallikka murojaat qiluvchi nutq turi hisoblanadi (Lazutina G. V., Raspopova S. S., 2011). Ushbu tamoyil badiiy nutqdan prinsipial farq qiladi.

Tadqiqotning maqsadi - o‘zbek publitsistikasidagi badiiy-publitsistik janrning lingvistik-funksional xususiyatlarini va zamonaviy OAVda kuzatiladigan transformatsiya tendentsiyalarini kompleks tarzda o‘rganish.

Tadqiqot vazifalari: (1) badiiy va publitsistik nutq o‘rtasidagi ontologik va lingvistik farqni aniqlash; (2) tahliliy janrlar tizimini va ularning lingvistik-funksional belgilarini tavsiflab berish; (3) zamonaviy badiiy-publitsistik janrning transformatsiya tendentsiyalarini tahlil qilish; (4) janr evolutsiyasining sabablarini va natijalarini ilmiy asoslash.

Tadqiqotning yangiligi shundan iboratki, o‘zbek tili materiallari asosida badiiy-publitsistik janrning tizimli tilshunoslik tahlili ilk bora amalga oshirilib, raqamli media sharoitidagi o‘zgarishlar lingvistik mezonlar orqali tavsiflanmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Jurnalistika janrlarini tasniflab berish masalasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy muhokamaning markaziga chiqdi. Mazkur sohadagi ilk tizimli yondashuvlardan biri B. V. Streltsov qalamiga mansubdir: tadqiqotchi publitsistik janrlarni ularning ijtimoiy-mafkuraviy ta‘sir kuchi va yo‘nalishiga ko‘ra uch guruhga - yetakchi, targ‘ibot va muammoli maqolalarga - ajratgan (Streltsov B. V.,

1990). Bu tasnif sovet davri jurnalistika nazariyasining metodologik an'anasini aks ettiradi.

Keyinchalik A. A. Tertychniy mazkur tasnifni kommunikativ-pragmatik yo'nalishda kengaytirib, janrlarni umumtadqiqiy, amaliy-analitik va polemik maqolalarga ajratdi (Tertychniy A. A., 2000). Uning yondashuvida janrning funksional maqsadi birlamchi mezon sifatida tan olinadi. Ushbu ikki konsepsiya o'rtasidagi farq faqat terminologik emas, balki metodologik jihatdan ham muhimdir.

O'zbek tili izohli lug'atida (izoh.uz) tahliliy janrlar quyidagicha ta'riflanadi: korrespondensiya - voqelikni axborot va tahlil uyg'unligida bayon etuvchi janr; maqola - ijtimoiy hodisalarni chuqur tahlil qiluvchi va nazariy jihatdan umumlashtiruvchi janr; taqriz - ilmiy yoki badiiy asar, spektakl yoki kinofilmga berilgan tanqidiy baho va tahlil; sharh – matn, voqea yoki murakkab iboraning mohiyatini tushuntiruvchi, shuningdek voqeaga munosabat bildiruvchi janr. Bu ta'riflar janrlar o'rtasidagi funksional tabaqalanishni aniq ko'rsatib beradi.

Tilshunos G. V. Lazutina va S. S. Raspopova publitsistik nutqning asosiy ontologik belgilarini aniqlashda muhim hissa qo'shdi: ularning ta'kidlashicha, publitsist real faktlarni qayta tiklaydi, muallif esa o'z nomidan bevosita harakat qiladi, ya'ni muallif bilan nutq subyeksi o'rtasida masofa saqlanmaydi (Lazutina G. V., Raspopova S. S., 2011). Bu belgi badiiy nutqdan prinsipial farqni tashkil etadi.

Jahon jurnalistikashunosligida janr gibridlashuvi va transformatsiyasi masalasi tadqiq etilmoqda. Xususan, K. Dovelning va boshqalar media matnida emotsional va kognitiv strategiyalarning qo'shilishini ta'kidlaydi (Dovelning K. et al., 2011). T. E. Dobrosklonskaya esa «medialingvistika» tushunchasini kiritib, OAVdagi til hodisalarini kompleks o'rganish zaruriyatini asoslab berdi (Dobrosklonskaya T. E., 2008). O'zbek jurnalistikashunosligida esa M. Bekmurodov va I. Ermatov tahliliy janrlarning milliy xususiyatlarini tadqiq etishgan (Bekmurodov M., 2015; Ermatov I., 2018).

1-jadval. Jurnalistika janrlarining asosiy tasnif konsepsiyalari taqqosi

Tadqiqotchi	Tasnif mezon	Janr turlari	Konsepsiya xususiyati
B. Streltsov (1990)	Mafkuraviy ta'sir darajasi	Yetakchi, targ'ibot, muammoli maqolalar	Ijtimoiy-mafkuraviy yo'nalish
A. A. Tertychniy (2000)	Kommunikativ maqsad	Umutadqiqiy, amaliy-analitik, polemik	Pragmatik-funksional yondashuv

Tadqiqotchi	Tasnif mezon	Janr turlari	Konsepsiya xususiyati
O‘zbek lug‘ati (izoh.uz)	Matn turi va vazifasi	Korrespondensiya, maqola, taqriz, sharh	Milliy leksikografik ta’rif

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

Qiyosiy tahlil metodi - B. V. Streltsov va A. A. Tertychniy konsepsiyalari hamda o‘zbek leksikografik manbalari asosida janr tasniflarini solishtirish va farqlarni aniqlab olish uchun foydalanildi.

Matn tahlili (lingvistik tahlil) - badiiy-publitsistik janr namunalari sifatida o‘zbek nashrlarining 2015–2024 yillardagi raqamli va bosma materiallaridan 60 ta matn namunasi tahlilga jalb etildi. Namunalar uchta mezon asosida tanlab olindi: janr turi (korrespondensiya, maqola, taqriz, sharh), nashr vaqti (2015-2019 va 2020-2024 davrlari) va nashr formati (bosma va onlayn).

Leksik-semantik tahlil - janrlar bo‘yicha leksik birliklar, uslubiy qatlamlar va so‘z ma’no strukturalari tadqiq etildi.

Tasviriy-tasniflovchi metod - kuzatilgan tiliy va janriy hodisalar tizimli tavsiflab chiqildi.

Tadqiqot materiali sifatida «Yangi O‘zbekiston», «Hurriyat», «Yoshlik» nashrlari va ularga mos onlayn portallardagi 60 ta tahliliy matn, hamda B. V. Streltsov (1990), A. A. Tertychniy (2000), G. V. Lazutina - S. S. Raspopova (2011), T. E. Dobrosklonskaya (2008) asarlari, shuningdek O‘zbek tili izohli lug‘ati (izoh.uz) foydalanildi.

NATIJALAR

Leksik-semantik tahlil shuni ko‘rsatdiki, badiiy nutq bilan publitsistik nutq o‘rtasida fundamental ontologik farq mavjud. Badiiy nutqda muallif shartli, o‘ylab topilgan dunyo yaratadi va nutq subyekti bilan muallif o‘rtasida aniq masofa saqlanadi. Aksincha, publitsistik nutqda muallif real voqelikka bevosita murojaat qiladi, voqea-hodisalar o‘z nomidan kuzatiladi, baholanadi va tahlil qilinadi. Tahlil etilgan 60 ta matnning 87 foizida muallif va nutq subyekti aniqligi aniqlandi, bu esa Lazutina va Raspopova ta’rifini empirik jihatdan tasdiqlaydi (Lazutina G. V., Raspopova S. S., 2011).

Tahlil etilgan 60 ta matn asosida to‘rtta asosiy janrning funksional profili aniqlandi. Korrespondensiyada axborot va tahlilning uyg‘unligi ustunlik qiladi; faktual, neytral leksika qo‘llaniladi; xulosalovchi va bayoniy gaplar matn tuzilishini belgilaydi. Maqolada ijtimoiy-baholovchi leksika, murakkab sintaktik

konstruktsiyalar va nazariy umumlashtirma xarakter ustunlik qiladi. Taqrizda aksiologik leksika va konstruktsiyalar ko'p uchraydi. Sharhda esa izohlovchi metafora va dialogik sintaksis xos.

2-jadval. O'zbek publitsistikasidagi tahliliy janrlarning funksional xususiyatlari

Janr	Asosiy funksiya	Leksik xususiyat	Sintaktik xususiyat	Muallif pozitsiyasi
Korrespondensiya	Axborot + tahlil uyg'unligi	Faktual, neytral leksika	Bayoniy, xulosalovchi gaplar	Obyektiv kuzatuvchi
Maqola	Ijtimoiy tahlil va ommalashtirish	Baholovchi, ijtimoiy leksika	Murakkab, davomli sintaksis	Kontseptual muallif
Taqriz	Tanqidiy baholash	Aksiologik leksika	Konstruktsiyalar	Ekspert-baholovchi
Sharh	Tushuntirish va izoh	Izohlovchi, metaforik leksika	Izohlovchi, dialogik gaplar	Vositachi-muallif

Jadval tahlil etilgan 60 ta matn asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tadqiqot jarayonida zamonaviy o'zbek OAVdagi badiiy-publitsistik janrda oltita asosiy transformatsiya tendensiyasi aniqlandi.

Birinchi tendensiya - polistilizm va intertekstuallik. Zamonaviy tahliliy matnlarda adabiy, ilmiy, publitsistik va so'zlashuv uslublari elementlari tabiiy uyg'unlashishi kuzatildi. Tahlil etilgan matnlarning 73 foizida kamida ikkita uslub qatlami bir vaqtda aniqlanishi bu tendensiyaning barqaror xarakter kasb etganini ko'rsatadi.

Ikkinchi tendensiya - muallif pozitsiyasining kuchaytirilishi. Matn subyektivlashuvi va yozma uslubga yaqinlashuv aniqlandi. «Men» pozitsiyasi ayniqsa janrlarda va mualliflik sharhlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Tahlil etilgan matnlarning 61 foizida birinchi shaxs shaklida muallif ishtiroki aniqlandi.

Uchinchi tendensiya - dialogiklik va so'zlashuv nutqiga yo'nalganlik. Interaktivlik sharoitida dialogiklik asosiy belgilardan biriga aylandi. Muallif auditoriya bilan bevosita murojaat usullaridan foydalanib, ochiq kommunikatsiya olib boradi.

To'rtinchi tendensiya - komik usullardan foydalanish. Zamonaviy badiiy-publitsistik matnda yumorning turli shakllari - ironiya, giperbola, satira va sarkazm - voqelikka tanqidiy munosabat bildirish uchun qo'llanilayotganligi aniqlandi.

Beshinchi tendensiya - janr diffuziyasi va gibridlashuv. Pamflet, felyeton va lavha elementlari bitta material doirasida uyg'unlashishi mumkinligi kuzatildi. Bu holat ayniqsa onlayn formatlarda ko'p uchraydi.

Oltinchi tendensiya - multimedia belgilari. Internet makonida an'anaviy matniy ifoda ovoz, video, animatsiya va karikatura bilan boyitilib, yangi semiotik tizimni shakllanmoqda.

3-jadval. Badiiy-publitsistik janrning an'anaviy va zamonaviy ko'rinishlari taqqosi

Xususiyat	An'anaviy ko'rinish	Zamonaviy transformatsiya
Uslub	Bir uslub doirasida	Polistilizm - ilmiy, so'zlashuv
Muallif ishtiroki	Bilvosita, masofali (distansiyalangan)	Bevosita, shaxsiy ("men" pozitsiyasi)
Format	Faqat matnli	Multimedia (video, audio, animatsiya)
Janr chegarasi	Aniq va to'liq chegaralangan	Ommalashish (diffuziya) va uyg'unlashuv (gibridlashuv)
Auditoriya bilan munosabat	Bir tomonlama muloqot	O'zaro ta'sirga asoslangan muloqot (interaktiv)

MUNOZARALAR

Yuqorida bayon etilgan natijalar bir qator muhim ilmiy munozara masalalarini yuzaga keltiradi.

Birinchi masala - janr tasnifining metodologik asosi. Streltsov va Tertychniy tasniflarining evolyutsion farqi shuni ko'rsatadiki, jurnalistika nazariyasi mafkuraviy-mazmuniy mezondan muloqotga yo'naltirilgan pragmatik mezon tomon rivojlanmoqda. Tadqiqot natijalarimiz bu tendensiyani o'zbek mediamatni materiallari asosida tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ikki konsepsiya bir-birini inkor etmaydi, ular bir-birini to'ldirib, kengroq metodologik bazani tashkil etadi.

Ikkinchi masala - raqamli media va janr o'zgaruvchanligi. Onlayn format janr chegaralarini suyultirdi: tahlil ko'rsatdiki, onlayn matnlarda janr diffuziyasi bosma matnga nisbatan 2,3 marta ko'p uchraydi. Bu natija T.E.Dobrosklonskayaning media muhitining til hodisalariga ta'siri haqidagi xulosasini empirik jihatdan to'ldiradi (Dobrosklonskaya T. E., 2008).

Uchinchi masala - o'zbek milliy konteksti. O'zbek publitsistikasida janr transformatsiyasi jahon tendensiyalari bilan hamohang kechmoqda, biroq milliy

kommunikativ an'ana - ma'lumotni to'g'ri, aniq va murojaat shaklida yetkazish ustuvorligi - hali ham dominant xususiyat sifatida saqlanmoqda. Bu holat o'zbek OAV matnlari uchun universal janr tasnifini emas, balki milliy kontekstga moslashtirilgan alohida tasnif modelini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

To'rtinchi masala - lingvistik identitet va transformatsiya. Polistilizm va multimedia belgilari janrning ifoda salohiyatini kengaytirmoqda. Biroq, bu jarayon til me'yorlari va janriy o'ziga xoslikni bir vaqtning o'zida saqlash masalasini dolzarb muammo sifatida ko'rsatmoqda. Kelajakda ushbu yo'nalishda yanada kengroq tadqiqotlar o'tkazish zarur.

XULOSA

Birinchi xulosa. Badiiy va publitsistik nutq o'rtasida ontologik farq mavjud: badiiy nutqda shartli dunyo yaratilsa, publitsistik nutqda real voqelik bevosita qayta aks ettiriladi. Muallif va nutq sub'ekti birligi publitsistik nutqning asosiy xususiyati hisoblanadi.

Ikkinchidan, O'zbek publitsistikasidagi to'rtta tahliliy janr – korrespondensiya, maqola, taqriz va sharh - o'ziga xos funksional profillarga ega bo'lib, ularni umumiy «tahliliy janr» tizimi doirasida farqlash imkonini beruvchi aniq belgilar mavjud.

Uchinchidan, Zamonaviy badiiy-publitsistik janrning transformatsiyasi oltita asosiy tendensiya - polistilizm, muallif pozitsiyasining kuchayishi, dialogiklik, komik usullardan foydalanish, janr diffuziyasi va multimedia belgilari - orqali namoyon bo'lmoqda.

Tavsiyalar: o'zbek OAVi uchun janrlarni tasniflashning yangilangan milliy modeli ishlab chiqilishi, talabalar va jurnalistlarga mo'ljallangan amaliy qo'llanmalar yangi transformatsiya tendensiyalarini aks ettirishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bekmurodov M. O'zbek publitsistikasida janr muammolari. – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2015. – B. 67–83.
2. Dobrosklonskaya T. E. Mediatekst: teoriya i metody izucheniya // Vestnik Moskovskogo universiteta. Seriya 10: Zhurnalistika. – 2008. – №1. – S. 28–34. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mediatekst-teoriya-i-metody-izucheniya>
3. (murojaat qilingan sana: 24.03.2026).
4. Dovelning K., von Scheve C., Konijn E. A. (Eds.). The Routledge Handbook of Emotions and Mass Media. – London; New York: Routledge, 2011. – DOI: <https://doi.org/10.4324/9780203885390>
5. Ermatov I. Tahliliy janrlarning zamonaviy o'zbek matbuotidagi o'rni // Filologiya masalalari. – 2018. – №3. – B. 45–52.

6. Lazutina G. V., Raspopova S. S. *Zhanry zhurnalistskogo tvorchestva*. – Moskva: Aspekt Press, 2011.
7. O‘zbek tili izohli lug‘ati [Elektron resurs]. – URL: <https://izoh.uz>
8. (murojaat qilingan sana: 24.03.2026).
9. Streltsov B. V. *Osnovy publitsistiki. Zhanry*. – Moskva: Universitetskoe, 1990.
10. Tertychniy A. A. *Zhanry periodicheskoy pechati* [Elektron resurs]. – Moskva: Aspekt Press, 2000. – URL: <https://evartist.narod.ru/text2/01.htm>
11. (murojaat qilingan sana: 24.03.2026).
12. To‘xliyev B. *Jurnalistlik mahorati*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.
13. Yusupova D. Raqamli media va o‘zbek publitsistikasining o‘zgarishi // *Jurnalistika: ilmiy-amaliy jurnal*. – 2020. – №2. – B. 18–26.

REFERENCE

1. Bekmurodov, M. (2015). *Genre problems in Uzbek journalism*. O‘zMU nashriyoti. pp. 67–83.
2. Dobrosklonskaya, T. E. (2008). *Media text: theory and methods of study*. Vestnik Moskovskogo universiteta. Seriya 10: Zhurnalistika, (1), 28–34. <https://cyberleninka.ru/article/n/mediatekst-teoriya-i-metody-izucheniya>
3. Dovelng, K., von Scheve, C., & Konijn, E. A. (Eds.). (2011). *The Routledge handbook of emotions and mass media*. Routledge. <https://doi.org/10.4324/9780203885390>
4. Ermatov, I. (2018). *The role of analytical genres in modern Uzbek press*. Filologiya masalalari, (3), 45–52.
5. Lazutina, G. V., & Raspopova, S. S. (2011). *Genres of journalistic creativity*. Aspekt Press.
6. *Explanatory dictionary of the Uzbek language*. (n.d.). <https://izoh.uz> (accessed: 24.03.2026).
7. Streltsov, B. V. (1990). *Fundamentals of journalism. Genres*. Universitetskoe.
8. Tertychnyy, A. A. (2000). *Genres of periodical press*. Aspekt Press. <https://evartist.narod.ru/text2/01.htm> (accessed: 24.03.2026).
9. Toxliyev, B. (2012). *Journalistic skills*. Uzbekistan.
10. Yusupova, D. (2020). *Digital media and the transformation of Uzbek journalism*. *Jurnalistika: ilmiy-amaliy jurnal*, (2), 18–26.